

---

## 2023 yilning o'tgan olti oyi davomida tumanimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar

□ yilning yanvar-iyun oylari davomida Rishton tumanida 5 ming 496 nafar "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga yordam ko'rsatildi.

□ Bugungi kunda tumanimizda ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlardan 184 nafari tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lib, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida ularga 1 mlrd. 866 mln. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

□ 7 nafar kam ta'minlangan ehtiyojmand xotin-qizlarning 32 mln. 800 ming so'mlik ta'lim kontrakt to'lovlari "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan to'lab berildi.

□ 56 nafar xotin-qizlarga subsidiyalar ajratilib, 450 mln. so'm mablag' yo'naltirildi

□ 4 ming 965 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi. 211 nafar xotin-qizlar kasbga o'qitilib, ularning 134 nafari tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'ydi, 77 nafari asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya berildi.

□ 366 xotin-qizlarga 445 mln. 680 ming so'm bir martalik moddiy yoordam mablag'i berildi, 3 nafari uy joyini ta'mirlash uchun 26 mln. so'm mablag' sarflandi xamda 1 nafari 3 mln so'm ijara kompensasiya to'lab berildi.

□ 14 nafar davolanish va jarrohlik amaliyotiga muhtoj xotin-qizlar va ularning farzandlariga Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda "Ayollar daftari" mablag'lari hisobidan 139 mln. 936 ming so'mlik mablag' sarflanib, sog'lom hayotga qaytarildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2023-07-21 14:40:16